XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 12-sentabr VII-9-67-11-167-K/25 Quvasoy shahar

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Quvasoy shahridagi 27 ta geografik obyektlarni ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha) nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga, Quvasoy shahar hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi tomonidan xatlov natijalariga asosan nomsiz hamda nomlari takroriy deb topilgan ko‘chalar bo‘yicha taklif tayyorlanib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Respublika toponimika xizmatiga 2025-yil 22-aprel kuni 01-04/34-sonli aloqa xati bilan “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” ekspert xulosasini olish uchun yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan olib borilgan o‘rganish natijasiga ko‘ra, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, 2025-yil 26-may kungi 03-08-5646-sonli aloqa xati, 2025-yil 23-may kungi 05-19-8266-sonli xulosasiga asosan 27 ta geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha bergan takliflaridan 27 tasi qonun hujjatlari talablariga “muvofiq” deb topilib, belgilangan tartibda ijobiy xulosalar olindi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Quvasoy shahar Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida Davlat tilini rivojlantirish

bo‘yicha Quvasoy shahar hokimining maslahatchisi X.Xo‘janazarovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quvasoy shahar komissiyasi tomonidan geografik obyektlarni qayta nomlash bo‘yicha taqdim etilgan hamda qonun talablariga muvofiq deb topilgan geografik obyekt (ko‘cha) nomlari **1-ilovaga asosan tasdiqlansin,** shuningdek, belgilangan tartibda davlat reyestri bazasiga kiritilsin.

3. Quvasoy shahar hokimligi Axborot xizmati (A.Nishonboyev), “Isfayram” gazetasi (O‘.Karimova) ushbu qarorni keng jamoatchilik vakillariga yetkazish tavsiya etilsin.

4. Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror bajarilishiga shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov, Kadastrlar palatasi Quvasoy shahar filiali rahbari A.Sultonovlar shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

6. Ushbu qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi A.Kasimov hamda davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha Quvasoy shahar hokimining maslahatchisi X.Xo‘janazarovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

TO‘RAKULOV
ZAFARJON
KODIROVICH

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2025-yil 12-sentabrdagi
VII-9-67-11-167-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati Quvasoy shahridagi xatlovdan o‘tkazilgan ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha qonun talablariga muvofiqlashtirilgan ko‘cha nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Qonun talablariga muvofiqlashtirilgan ko‘cha nomlari
1.	Tor ko‘cha	Pastki Valik mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Subhidam-1
2.	Tor ko‘cha	Pastki Valik mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Subhidam-2
3.	Tor ko‘cha	Pastki Valik mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Subhidam-3
4.	Berk ko‘cha	Pastki Valik mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Subhidam
5.	Ko‘cha	Pastki Valik mahalasi	Chaman	Subhidam
6.	Ko‘cha	A.Temur mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Qalqon
7.	Tor ko‘cha	A.Temur mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Qalqon
8.	Berk ko‘cha	Pakana mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Yangilanish-1
9.	Berk ko‘cha	Pakana mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Yangilanish-2
10.	Berk ko‘cha	Pakana mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Yangilanish-3
11.	Berk ko‘cha	Pakana mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Yangilanish-4
12.	Tor ko‘cha	Pakana mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Yangilanish
13.	Ko‘cha	Pakana mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Yangilanish
14.	Berk ko‘cha	Kokilon mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Tojmahal
15.	Ko‘cha	Kokilon mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Tojmahal
16.	Tor ko‘cha	Qo‘chqorchi mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Taraqqiyot-1
17.	Tor ko‘cha	Qo‘chqorchi mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Taraqqiyot-2
18.	Berk ko‘cha	Qo‘chqorchi mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Taraqqiyot
19.	Ko‘cha	Qo‘chqorchi mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Taraqqiyot
20.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Qaramko‘l-1
21.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Qaramko‘l-2
22.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Qaramko‘l-3
23.	Berk ko‘cha	Bo‘ston mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Qaramko‘l-4
24.	Ko‘cha	Bo‘ston mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Qaramko‘l
25.	Tor ko‘cha	Bo‘ston mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Qaramko‘l
26.	Ko‘cha	Pakana mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Adolat
27.	Tor ko‘cha	Pakana mahalasi	Nomsiz ko‘chasi	Adolat